

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI ANIQLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yakubov Ulugbek Kasimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy tahlil” kafedrası professori, DSc.

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik subyektlarini reytingini aniqlashda ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish, faoliyat samaradorligiga baho berishning o‘ziga xos jihatlari aniq biznes subyekti misolida yoritib berilgan. Tadbirkorlik subyekting faoliyatiga baho berishning yo‘llari atroflicha muhokama qilingan. Tadbirkorlik subyekti faoliyati tahlilidagi munozarali masalalarga mualliflik tavsiyalari taklif etilgan. Taklif etilgan tavsiyalar asosida tadbirkorlik subyekting barqarorlik reytingini belgilashda muhim ko‘rsatkichlar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: reyting, barqarorlik, nobarqarorlik, krizis, ko‘rsatkichlar, reyting, moliyalastirish.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА

Якубов Улугбек Касимович

Ташкентский государственный экономический университет

Профессор кафедры «Финансовый анализ»

доктор экономических наук, профессор

Аннотация: В статье освещены особенности формирования системы показателей для определения рейтинга субъектов предпринимательство, оценки эффективности деятельности на примере конкретного субъекта предпринимательство. Подробно рассмотрены способы оценки деятельности субъекта предпринимательство. На основе предложенных рекомендаций определены важные показатели для определения рейтинга устойчивости хозяйствующего субъекта.

Ключевые слова: рейтинг, стабильность, нестабильность, кризис, индикаторы, рейтинг, финансирование.

ELABORATING ISSUES OF DETERMINING THE SUSTAINABILITY RATING OF BUSINESS ENTITIES

Yakubov Ulugbek Kasimovich

Tashkent State Economic University

Professor of the Department of Financial Analysis

Doctor of Economic Sciences, Professor

Abstract: The article describes the formation of a system of indicators for determining the rating of business entities, the specific aspects of assessing the effectiveness of activities on the example of a specific business entity. The ways of assessing the activities of a business entity are discussed in detail. Author's recommendations are offered on controversial issues in the analysis of the activities of a business entity. Based on the proposed recommendations, important indicators are identified for determining the stability rating of a business entity.

Keywords: rating, stability, instability, crisis, indicators, rating, financing.

Kirish.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini 2024-2025-yillarda 6 foiz, 2026-yilda 6,1 foiz va 2027-yilda 6,3 foiz darajasida ta'minlash orqali aholi jon boshiga Yalpi ichki mahsulotni 2024-yilda 3 ming AQSH dollaridan 2027-yilga borib 3,8 ming AQSH dollariga yetkazish prognoz qilinmoqda [5]. Bu o'z navbatida tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligini oshirishga, yangi yondashuvlar asosida maxalliyashtirish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishini talab etadi.

Mamlakatda Davlat ishtirokidagi korxonalarining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida ularning kuzatuv kengashi tarkibida strategiya va investitsiyalar, audit, tayinlash va mukofotlash, korrupsiyaga qarshi kurash va axloq bo'yicha qo'mitalar tashkil etilgan bo'lib samarali faoliyati yo'lga qo'yilgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 8 ta Davlat ishtirokidagi korxonalar xalqaro reyting agentliklari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning barchasi, jumladan, "Uzmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati ham BB-(Barqaror) reytingiga ega bo'lgan [5].

Davlat korxonalarini isloh qilish maqsadida ko'plab qonun va qonunosti hujjatlari, xususan "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi 2023-yil 9-martdagi O'RQ-821-sonli Qonun, "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ-907-sonli Qonun qabul qilindi. Davlat korxonalarini xususiylashtirishni jadallashtirish maqsadida 2024-yil 19-aprelda "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorlari qabul qilingan.

2025-yil 1-iyulga qadar professional konsultantlarni jalb etgan holda 7 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarining 50 foizdan ortiq, 2026-yilga qadar 4 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarining 5 foiz ulushini savdoga chiqarish belgilangan [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil, 23-yanvardagi tegishli qaroriga binoan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgan. Maqsad - tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Monografik kuzatishlardan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, barqarorlik keng tushuncha. Shu sababdan, uning uchta: ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy turlari ajratib ko'rishadi.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuniga binoan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga asosan to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi asosida baho berishga e'tibor qaratilgan [1].

Iqtisodiy barqarorlikning turlari moliyaviy tahlilga oid adabiyotlarda korxonaning o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbatidan (Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I.) iboratligi qayd etilgan bo'lsa [7], ba'zilarida qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi (Sheremet A.D.) deb [8], balans harakatchanligi va tovar moddiy zahiralari manbaalar bilan qoplanishi bilan (A.Vahobov, G.Ibragimov, U.Yakubov) biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligiga baho berilgan [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2024 yildagi PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi 23 ta ko'rsatkich asosida, quyidagi toifalarga ajratilgan:

1. "AAA", "AA" va "A" toifalar — yuqori barqarorlik reytingi;
2. "BBB", "BB" va "B" toifalar — o'rta barqarorlik reytingi;
3. "CCC", "CC" va "C" toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi;
4. "D" toifa — quyi barqarorlik reytingi [2].

Odatda moliyaviy hisobotlar biznes subyektlari faoliyatini barqarorligi va rentabelligi, resurslarning taqsimlanishi kabi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Ular asosda, xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy ahvoli, uning hisobot davridagi faoliyatining natijasi tahlil etiladi va moliyaviy holatiga baho beriladi. Moliyaviy holatga likvidlilik, to'lovga layoqatlilik, daromadlilik kabi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib fiskal xatar darajasi aniqlangan. Bizningcha, tadbirkorlik subyektlarini reyting baholashda: -aktivlar va passivlari; -ishlab chiqarish zaxiralari va ularni moliyalashtirish manbalarining holatini baholash natijalari bilan boyitilsa maqsadga

muvofig bo‘ladi. Chunki, ular asosida tadbirkorlik subyekting faoliyat natijasi yuzasidan samaraliroq hulosa chiqariladi.

Mavzu doirasida monografik kuzatuv, iqtisodiy, moliyaviy tahlil metodlaridan foydalanilgan holda tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini baholashning samaraliroq yo‘li ko‘rsatilgan.

Natijalar.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra “Uzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati ham BB-(Barqaror) reytingiga ega bo‘lgan [4]. “Uzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yilgi moliyaviy hisobotlari asosida faoliyati amaldagi qonun va qonun osti hujjatlari, iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan usullar bilan tahlil etildi (1-jadval).

1-jadval.

**“Uzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatini konsolidatsiyalashgan
moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti asosida aktivlari
va manbalarini holatini tahlili [11].**

(ming so‘m hisobida)

Aktiv	2023 yil	2024 yil	Passiv	2023 yil	2024 yil
1. O‘ta tez pulga aylanuvchi aktivlar (A1)	381303323	428931298	1. Muddati etib kelgan majburiyatlar (P1)	324146030 4	1707178564
2. Tez pulga aylanuvchi aktivlar (A2)	440555201 5	2928938963	2. Joriy kredit va qarzlari (P2)	424890646	1329552623
3. Sekin pulga aylanuvchi aktivlar (A3)	185483484 2	2116082745	3. Uzoq muddatli majburiyatlar (P3)	237105440 2	3540363921
4. Qiyin pulga aylanuvchi aktivlar (A4)	329147644 9	6767340224	4. Doimiy passivlar (P4)	389576127 7	5664198122

JAMI AKTIVLA R	993316662 9	1224129323 0	JAMI PASSIVLA R	993316662 9	1224129323 0
-------------------------------	------------------------	-------------------------	--------------------------------	------------------------	-------------------------

Tahlil jadvaliga binoan, “Uzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatini buhgalteriya balansi ma’lumotlaridan kelib chiqib 2023-yil: $A1 < P1$; $A2 > P2$; $A3 < P3$; $A4 < P4$; 2024-yil $A1 < P1$; $A2 > P2$; $A3 < P3$; $A4 > P4$ shartlardagi moliyaviy holatga ega bo‘lgan.

Ishlab chiqarish zaxiralari va ularni moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, moliyaviy holati quyidagicha bo‘lgan:

1. Zaxiralarni o‘z mabla‘lar manbai hisobiga moliyalashtirilishi 2023-yilda -1250550014 ming so‘m; 2024-yilda -3219224847 ming so‘mni;

2. Zaxiralarni o‘z mabla‘lar va uzoq muddatli qarz manbalari hisobiga moliyalashtirilishi 2023-yilda 1120504388 ming so‘m; 2024-yilda 321139074 ming so‘mni;

3. Zaxiralarni jami manbalar hisobiga moliyalashtirilishi 2023-yilda 1545395034 ming so‘m; 2024-yilda 16506911697 ming so‘mni tashkil etgan.

EBITDA bo‘yicha rentabellik darajasi 2024-yilda
 $(513660728 + 190241716 + ((1591334866 - 1427017765) + (1893452 - 1707300)) + 225639064) / 13,2$ (EBITDA margin = $1094044761 / 8296538073 \times 100$ %) foiz bo‘lgan.

Ta’kidlash kerakki, yuqoridagi yo‘llar bilan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatiga berilgan baholarni bir-biriga to‘liq mos deb bo‘lmaydi. Shu sababdan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini faqatgina **EBITDA bo‘yicha rentabelligi** bilan baholanishi etarli bo‘lmasa kerak deb hisoblaymiz.

Muhokama.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son [Qarori](#) ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.2024 yildagi 55-sonli “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilindi. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi:

a) 10 ta umumiy;

b) 9 ta ballarni pasaytiruvchi;

v) 4 ta qo‘shimcha ball belgilovchi ko‘rsatkichlardan tashkil topgan.

Barqarorlik reytingi tadbirkorlik subyekti faoliyatini baholash va ularga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish maqsadida joriy etilgan. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va boshqa manbaalarda tadbirkorlik subyektlarining operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyati tarkiblangan. Shu jihatdan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholashda EBITDA bo‘yicha rentabellikni boshqa sifat ko‘rsatkichlari

bilan to'ldirilishini maqsadga muvofiq deb, hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil, 31-iyuldagi 467-sonli "Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024 –yil, 30-yanvardagi 55-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qarorida:

"13. EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi tadbirkorlik subyektning sof foydasiga foiz to'lovlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, hisoblangan foyda solig'i summasi qo'shib, tovarlarni (xizmatlarni) sof tushumga bo'lish va 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi ($EBITDA \text{ margin} = EBITDA / \text{daromad} \times 100 \%$)" [3], deb keltirilgan.

Qayd etish kerakki, tadbirkorlik subyekti hisobot davrida sof foydaga erishmagan holda ham EBITDA bo'yicha rentabellikka erishishi mumkin. Chunki, tadbirkorlik subyekti asosiy va nomoddiy aktivlarining amortizatsiyasi hisobidan, hisobot davrida sof foyda olinmagan taqdirda ham ijobiy EBITDA ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkin. Natijada, tadbirkorlik subyektning **EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi** uning faoliyatiga etarlicha baho beradi deb bo'lmaydi [10].

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan "Konseptual asos" va boshqa buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari tahlilidan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki: - "Tadbirkorlik subyekti faoliyatini baholashda o'zida mavjud iqtisodiy resurslardan qanday samara olganligini yoritish zarur. Samara, mulk egalarining badallari bilan bog'liq bo'lmagan holda xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishi bilan izohlanadi" [4].

Ilmiy izlanishlardan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'ektini **EBITDA bo'yicha rentabellik ko'rsatkichini**, quyidagi ko'rsatkichlar va ularning shartlari asosida to'ldirish zarur:

1. EBITDA bo'yicha rentabelligi 20 va undan yuqori foiz va mutloq moliyaviy barqarorlikka ega bo'lsa — 10 ball;
2. EBITDA bo'yicha rentabelligi 10-19 foizgacha va moliyaviy barqarorlikka ega bo'lsa — 6 ball;
3. EBITDA bo'yicha rentabelligi 1-9 foizgacha va moliyaviy nobarqarorlikka ega bo'lsa — 2 ball beriladi.
4. EBITDA bo'yicha rentabelligi 0 foizdan kichkina va krizisli moliyaviy holatga ega bo'lsa ball berilmaydi deb, qo'shimchalarning kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Negaki, hududda tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatayotgan sohaning o'rtacha ko'rsatkichi 20 foiz bo'lganda, xo'jalik yurituvchi subyekting 40 foiz rentabellikka erishgan holdagina 10 ballga ega bo'lishi keltirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni. (yangi tahrirda) 2021 yil 16 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.01.2024 yildagi PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (<https://lex.uz/docs/-6773342>).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil, 31- iyuldagi 467-sonli "Vazirlar Mahkamasining qarori "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024 –yil, 30-yanvardagi 55-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i.
5. Budjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
6. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.Q. "Iqtisodiy tahlil va audit". – T. "Iqtisod-Moliy". 2015. - 483 b.
7. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". – T. 2017. - 534 b..
8. Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. [НИЦ ИНФРА-М](#). 2024. 208 с..
9. Yakubov U., Abdullayev A. [Modeling of The Analysis of The Financial State of The Business Entity](#). - Journal of Management and Economics, 2025.
10. Yakubov Ulugbek Kasimovich, Abdullaev Abror Bozarboevich, Pardaev Fayzulla Gaffarovich. [Elaboration Issues Of The Reflection And Analysis Of Tax Assets \(Liabilities\) In Financial Statements](#). Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2025/3/7.
11. <https://new.openinfo.uz/organizations/383?active-collapse=reports>